



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI
HAY‘AT QARORI**

2025-yil 5-dekabr

Toshkent sh.

№ 18/2

Vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlarida O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni ijrosini o‘rganish natijalari haqida

Vazirlik hay‘ati qayd etadiki, vazirlik markaziy apparati va vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5850-sonli Farmoni, 2025-yil 20-oktabrdagi “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-308-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-fevraldagi “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to‘liq o‘tishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 61-sonli qarori ijrosini ta‘minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan.

Vazirlik markaziy apparati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari, Meliorativ ekspeditsiyalar, “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari, yirik gidrotexnik inshootlar va suv omborlari, irrigatsiya tizim boshqarmalari, tumanlar “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlarining rasmiy muhrlari, tamg‘alari va ish qog‘ozlarining matnlari va ishlari davlat tilida yuritilmoqda.

Vazirlik tasarrufidagi barcha suv xo‘jaligi obyektlarining jug‘rofiy-hududiy nomlari davlat tilida yozilib, har yili 21-oktabr arafasida “O‘zbek tili bayrami kuni” keng bayram sifatida nishonlanib, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazilmoqda, buyruqlar, hay‘at yig‘ilishi va apparat yig‘ilishlari qarorlari, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari, yo‘riqnoma, ko‘rsatma va tavsiyalar davlat tilida tayyorlanmoqda.

Lekin, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-oktabrdagi 171-sonli yig‘ilish bayoni topshiriqlariga muvofiq vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlarida Davlat tili haqidagi qonunchilik hujjatlari ijrosi o‘rganilganda bir qator xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilayotganligi, bu borada o‘z yechimini kutayotgan masalalar mavjudligi aniqlangan.

Jumladan, Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot institutida 2025-yilning o‘tgan davri mobaynida qabul qilingan 34 ta buyruqlarda bir qator orfografik va imlovii xato-kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgani, tinish belgilari noto‘g‘ri qo‘llanilgani, zarur hollarda esa qo‘llanilmagani, ayrim jumalarning o‘z o‘rnida qo‘llanilmasligi oqibatida buyruq matni tushunarsiz qurilgani aniqlangan.

Bunday xato va kamchiliklar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlarida ham kuzatilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qayd etilgan xato-kamchiliklarni bartaraf etish, o‘z yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilish, vazirlik tizimidagi barcha tashkilot va muassasalarda davlat tili qoidalariga to‘liq amal qilinishini yo‘lga qo‘yish, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-oktabrdagi 171-sonli yig‘ilish bayoni topshiriqlarining ijrosini ta‘minlash, shuningdek, Davlat tili haqidagi qonunchilik hujjatlari talablariga qat‘iy rioya etilishi yuzasidan boshqaruvning barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarning shaxsiy mas‘uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida hay‘at yig‘ilishi

Qaror qiladi:

1. Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot institutida O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni ijrosini o‘rganish natijalari haqidagi ma‘lumot **rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.**

2. Vazirning barcha o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-fevraldagi “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to‘liq o‘tishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 61-sonli qarori ijrosini ta‘minlash borasida amalga oshirilgan ishlar **talab darajasida emas deb topilsin.**

3. Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti direktori v.v.b. A.Urazkeldiyevga Davlat tili haqidagi qonunchilik hujjatlari talablariga qat‘iy rioya etilishi yuzasidan kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganligi **ko‘rsatib o‘tilsin.**

4. Vazirning barcha o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlariga:

ikki kun muddat ichida mazkur hay‘at yig‘ilishi qarorini har bir xodimga o‘qib eshittirish, uning mazmun-mohiyatini yetkazish, Davlat tili haqidagi qonunchilik hujjatlari talablariga qat‘iy rioya etilishi yuzasidan barcha darajadagi rahbar va xodimlarning shaxsiy mas‘uliyati va javobgarligini kuchaytirish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirish;

muntazam ravishda Davlat tili haqidagi qonunchilik hujjatlari talablari ijrosini ta‘minlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida, shuningdek, budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan zarur mablag‘lar ajratishni nazarda tutish;

muntazam ravishda Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi, imlo qoidalari va davlat tilida ish yuritishni o‘rganish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish vazifalari toshirilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-308-sonli qarori talablaridan kelib chiqib, **2026-yil 1-yanvardan boshlab Vazirlikda ma‘naviyat**

va davlat tili masalalari bilan shug'ullanish vaqtincha Axborot xizmati boshlig'i Sh.Suyunovga topshirilsin.

5. Axborot xizmati boshlig'i Sh.Suyunov:

uch kun muddatda Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot institutida buyruq, xat va me'yoriy hujjatlarni tayyorlash bilan shug'ullanuvchi xodimlar uchun o'zbek adabiy tili qoidalariga amal qilish bo'yicha o'qish tashkil etsin;

muntazam ravishda tizim tashkilotlarida ma'naviy ishlar samaradorligini hamda davlat tili qoida va talablarining ijrosini monitoring qilib borsin.

6. Ushbu hay'at yig'ilishi qarorining ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari Z.Ishpulatov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



Sh.Xamrayev